# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5 (2)



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*
*2-qism*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI ........ 12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li

O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ........ 16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich

РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ........ 21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи

ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH ........ 27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li

RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 32
Azlarova Aziza Axrorovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 41
M.O. Yo'ldoshova

NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH ........ 45
Anvar Deberdiyev

SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI ........ 49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich

STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR ........ 55
Ishimova Mohinur Absalomovna

UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ........ 61
Zakirova Gulnoza Qudratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna

TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI ........ 73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 79
Yuldashev Akmal Kiyomovich

TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH ........ 83
Abirova Nargizabonu

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI ........ 88
Turayev Abduvohid Kuldashevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI......93
Artiqova O‘g‘iljon Zafar qizi

O‘ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI......101
Rustamov Zafar

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI......107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich

BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH......111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o‘g‘li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ......116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI......121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna

TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH......127
Melibayev Sodir Adilovich

TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA’MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O‘RNI......135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich

DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN......140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov

VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI......147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich

O‘ZBEKISTON QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI......152
Shamsiddinov Ne’matjon Ashurali o‘g‘li

ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH......157
To‘ychiyeva Dilnoza Farxod qizi

ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI......162
Aripov Ulug‘bek Bahodirovich

UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI......166
A’zamxo‘jayeva Nihola Sulaymon qizi

HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)......171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH......175
Bo‘taev O‘tkir Eshboevich

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH......181
Umarova Malika Nematjanovna

РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ......187
Рахмонов Джамшид Одил угли

ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА ........ 194
**Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна**

BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH ........ 200
**Avazbek Jo'rayev**

BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI ........ 207
**Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna**

ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ........ 211
**Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich**

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ ........ 215
**Абдупаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI ........ 228
**Mohichexra Melikovna Mo'minova**

INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI ........ 233
**Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna**

TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 239
**Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna**

MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI ........ 245
**Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich**

HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........ 250
**Daminov Mirvoxid Isroilovich**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL ........ 255
**Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich**

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI ........ 264
**Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li**

ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ........ 271
**Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович**

SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI ........ 276
**Namozov Shahzod Maxmud o'g'li**

INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES ........ 282
**Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna**

COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN ........ 290
**Shokhrukh Ziyavaddinov**

O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI ........ 299
**Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li**

TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 306
**Turdiyev Izatulla Ollaqulovich**

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 312
**Xoliqulova Yulduz Panji qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNING O‘RNI: XORIJ TAJRIBASI ........ 317
Mavlonov Ozod Ulug‘bekovich

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY DAVLATLAR ILG‘OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI ........ 322
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi

BANK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI ........ 330
Boltayev Zokirjon Otanazarovich

RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO‘LOV QOBILIYATINI TA’MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI ........ 334
Adilova Zohida Ikromjonovna

MOLIYAVIY AKTIVLAR TARKIBIDAGI DEBITORLIK QARZDORLIKLARINI MHXS TALABLARI ASOSIDA BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI ........ 339
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕНЕДЖМЕНТА В УСЛОВИЯХ УДАЛЁННОЙ РАБОТЫ ........ 345
Хамидов Далер Дилшодович

ISMOIL SOMONIY MAQBARASINING TURISTIK SIG‘IMINI BAHOLASH: BUXORO TARIXIY MARKAZI MISOLIDA ........ 351
Choriyeva Dilovar Tohir qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o‘g‘li

CONSUMER TRUST IN UZBEKISTAN’S E-COMMERCE ........ 356
Erkin Shavqiyev Professor, Ulugmurodov Farkhod

IMPROVING THE FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES ........ 362
Karamatdinova Aysawle Parakhatovna

XORIJIY OLIY TA’LIM MUASSASALARINING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI TAHLILI: O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI ........ 369
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek

SURXONDARYO VILOYATIDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ........ 374
Islomov Bobur Bahodir o‘g‘li

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARGA AMORTIZATSIYA HISOBLASH USULLARI VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 380
Xasanov Shoxrux Raximjonovich

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA REAL SEKTOR KORXONALARINING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 385
Sobitova Ra’no Solidjonovna, Babaxadjayev Firdavs Bahodir o‘g‘li

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEK CONSULTING SERVICES MARKET AND METHODS FOR ASSESSING THE POTENTIAL FOR ATTRACTING INVESTMENTS ........ 388
Usmonova Dilfuza Ilkhomovna

RESPUBLIKAMIZDA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARDAN FOYDALANISH ........ 394
Kalanova Moxigul Baxritdinova

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA KORXONA BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 399
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o‘g‘li

BALIQCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK MAJMUALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ROSSIYA TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI ........ 406
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINING ZAMONAVIY MODELLARI ........ 416
Xasanov Komil Mutalibjanovich

TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI: EMPIRIK TAHLIL ........ 421
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FINANCIAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF ADDITIONAL ACTIVITIES IN FARM ENTERPRISES ........ 426
Kalimbetov Khaliknazar Kurbanbaevich

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 432
Suyarov Shaxzod Salim o'g'li

XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARIDAN O'ZBEKISTONGA JALB ETILGAN IMTIYOZLI MABLAG'LARNING SAMARADORLIGI ........ 438
Turdiyeva Zarnigor Asqar qizi

NAVOIY VILOYATIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ........ 442
Turayev Abduvoxid Kuldashevich

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKNI BOSHQARISHNING XORIJIY AMALIYOTI ........ 448
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich

KORXONALARDA STRATEGIK REJANI ISHLAB CHIQISH DARAJALARI VA BOSQICHLARI ........ 452
Zaripova Sayohat Zafarovna

IQLIM O'ZGARISHINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBA ........ 457
Ozodxon Mahmudovna Qo'ziboyeva, Anvarbekov Fayzullo Rustamjon o'g'li, Rahmonova Xosiyatxon Fayzullo qizi

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF BANKING SERVICES THROUGH THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA TECHNOLOGIES ........ 462
Mamatova Sevara Ilhom kizi

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISK MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 470
Toshpulatov Davron Akromovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH: HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR ........ 477
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna

YASHIRIN IQTISODIYOTNING RASMIY IQTISODIYOTGA TA'SIRINI BAHOLASH MUAMMOLARI ........ 482
Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li

NAVOIY VILOYATI QIZILQUM CHO'LLARIDA XALQARO TURIZMNI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ........ 486
Turayev Abduvoxid Kuldashevich

BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: TANLANGAN DAVLATLAR VA O'ZBEKISTON MISOLIDA ........ 493
Dadabayeva Nigora Muxamatxanovna, Jahongirova Muazzamxon Jahongir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ULARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI: TANLANGAN DAVLATLAR VA O‘ZBEKISTON MISOLIDA

**Dadabayeva Nigora Muxamatxanovna**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.
Email: djalilova.nigora.fn@u.tsukuba.ac.jp
ORCID: 0000-0001-5673-4087

**Jahongirova Muazzamxon Jahongir qizi**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti
Email: jahangirovammm@gmail.com
Email: 0009-0005-6731-7429

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror shahar rivojlanishining asosiy omillari va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqot Yevropa, Osiyo va O‘rta Osiyo davlatlarining empirik ma’lumotlari asosida amalga oshirilgan bo‘lib, Singapur, Kopengagen, Vena va Toshkent shaharlari misolida qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Ishda iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarining shahar barqarorligi ko‘rsatkichlariga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil infratuzilma, raqamli boshqaruv tizimlari, ijtimoiy inklyuzivlik va samarali transport tizimi barqaror shahar rivojlanishining ustuvor omillari hisoblanadi. O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror shahar rivojlanishi; iqtisodiy o‘sish; yashil infratuzilma; raqamli boshqaruv; urbanizatsiya; O‘zbekiston; BMTTM Barqaror rivojlanish maqsadlari.

Abstract. This article examines the key factors of sustainable urban development and their impact on economic growth. The study is based on empirical data from European, Asian, and Central Asian countries, conducting a comparative analysis using the examples of Singapore, Copenhagen, Vienna, and Tashkent. The paper analyzes the influence of economic, ecological, social, and governance factors on urban sustainability indicators. The findings suggest that green infrastructure, digital governance systems, social inclusivity, and efficient transportation are the priority factors of sustainable urban development. Practical recommendations for Uzbekistan are developed.

Key words: sustainable urban development; economic growth; green infrastructure; digital governance; urbanization; Uzbekistan; UN SDGs.

Аннотация. В данной статье исследуются основные факторы устойчивого городского развития и их влияние на экономический рост. Исследование проведено на основе эмпирических данных европейских, азиатских стран и стран Центральной Азии с использованием сравнительного анализа на примере Сингапура, Копенгагена, Вены и Ташкента. В статье рассматривается влияние экономических, экологических, социальных и управленческих факторов на показатели устойчивости городов. Полученные результаты свидетельствуют о том, что зелёная инфраструктура, системы цифрового управления, социальная инклюзивность и эффективная транспортная система являются приоритетными факторами устойчивого городского развития. Разработаны практические рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: устойчивое городское развитие; экономический рост; зелёная инфраструктура; цифровое управление; урбанизация; Узбекистан; ЦУР ООН.

## KIRISH

Jahon aholisining shahar hududlarida toʻplanishi zamonaviy iqtisodiyotning eng dolzarb tendensiyalaridan biriga aylandi. BMT maʼlumotlariga koʻra, 2024-yil holatiga koʻra jahon aholisining 57 foizdan ortigʻi shaharlarda istiqomat qilmoqda va bu koʻrsatkich 2050-yilga kelib 68 foizga yetishi prognoz qilinmoqda [1]. Ushbu demografik oʻzgarishlar shaharlarga ulkan iqtisodiy imkoniyatlar ochib berish bilan birga, infratuzilma, ekologiya, ijtimoiy rivojlanish va boshqaruv sohalarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Barqaror shahar rivojlanishi konsepsiyasi BMTning 2030-yilga moʻljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), xususan, 11-maqsad — “Barqaror shaharlar va aholi punktlari”ni amalga oshirishning markaziy elementiga aylandi [2]. Ushbu maqsad shaharlarni inklyuziv, xavfsiz, moslashuvchan va barqaror qilishni oʻz ichiga oladi. Biroq, barqarorlik bilan iqtisodiy oʻsishning bir-biriga bogʻliqligi hamon munozarali mavzu boʻlib qolmoqda.

Oʻzbekiston uchun ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakat 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar doirasida shaharlarni modernizatsiya qilish va urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solishga alohida eʼtibor qaratmoqda [3]. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi yirik shaharlar barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etishda dastlabki qadamlarni qoʻymoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi barqaror shahar rivojlanishining asosiy omillarini aniqlash va ularning iqtisodiy oʻsishga taʼsirini tanlangan davlatlar hamda Oʻzbekiston misolida empirik asosda baholashdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal etadi:

1. Barqaror shahar rivojlanishi konsepsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda asosiy omillarni aniqlash va tasniflash;
3. Tanlangan shaharlarda barqarorlik koʻrsatkichlari va iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi bogʻliqlikni empirik baholash;
4. Oʻzbekiston shaharlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Barqaror rivojlanish” tushunchasi 1987-yilda Brundtland komissiyasining “Bizning umumiy kelajagimiz” hisobotida birinchi marta rasman taʼriflangan boʻlib, uni “kelajak avlodlarning oʻz ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga xalal bermagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiruvchi rivojlanish” deb izohlagan [4]. Keyingi oʻn yilliklarda ushbu tushuncha shaharlar kontekstida yanada rivojlandi va “barqaror shahar” konsepsiyasiga aylandi.

Shahar barqarorligini oʻrganishda uchta asosiy nazariy yondashuv mavjud. Birinchisi — “uch ustun” modeli boʻlib, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik oʻlchamlarni muvozanatli rivojlantirish zarurligini asoslab beradi [5]. Ikkinchisi — Ekotizim xizmatlari nazariyasi boʻlib, shahar muhitini tabiiy ekotizimning bir qismi sifatida koʻrib chiqadi [6]. Uchinchisi — Aqlli shahar (Smart City) paradigmasi boʻlib, raqamli texnologiyalar orqali shahar boshqaruvini samaralashtirish imkoniyatlarini oʻrganadi [7].

Koʻplab tadqiqotlar barqaror shahar rivojlanishi omillari bilan iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi ijobiy korrelyatsiyani isbotlagan. Glaeser va Gottlieb [8] oʻz tadqiqotlarida shahar infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni taʼminlashini koʻrsatgan. Holden va boshqalar [9] esa yashil infratuzilmaning shahar YaIM oʻsishiga yillik 0,3–0,8 foiz qoʻshimcha hissa qoʻshishini aniqlagan.

Raqamli boshqaruv tizimlarining shahar iqtisodiyotiga taʼsirini oʻrganishda Nam va Pardo [10] “Aqlli shahar” indeksining yuqoriligi shu shahardagi iqtisodiy faollikning ham yuqoriligi bilan bevosita bogʻliqligini aniqlagan. Singapur, Barselona va Amsterdam misollarida bu bogʻliqlik ayniqsa yaqqol koʻrinadi.

Ijtimoiy inklyuzivlik omilining iqtisodiy ahamiyatini oʻrganishda Sen va Murshed [11] shahar aholisining turli qatlamlari oʻrtasidagi tengsizlikning iqtisodiy oʻsishga salbiy taʼsir koʻrsatishini empirik jihatdan isbotlagan. Transport infratuzilmasi kontekstida esa Banister [12] qulay shahar transporti aholining mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirishi va YaIM oʻsishiga bevosita hissa qoʻshishini isbotlagan.

Oʻrta Osiyo shaharlarining barqaror rivojlanish muammolarini oʻrganishda Spoor [13] mintaqaning oʻziga xos xususiyatlarini — sovet davri meros infratuzilmasi, suv tanqisligi va tez urbanizatsiya jarayonlarini — alohida omillar sifatida ajratib koʻrsatgan. Djanibekov va boshqalar [14] Oʻzbekiston shaharlari misolida barqaror rivojlanish indikatorlarini baholab, asosiy muammolar sifatida energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va transport tiqilinchini aniqlagan.

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston shaharlari misolida barqarorlik omillarini iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlari bilan bogʻlab qiyosiy tahlil oʻtkazuvchi tadqiqotlar hali yetarli emas. Ushbu ilmiy boʻshliq mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida qurilgan boʻlib, miqdoriy va sifatiy usullarni birlashtiradi. Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Taqqoslama tahlil — Singapur, Kopengagen, Vena va Toshkent shaharlarining barqarorlik koʻrsatkichlari va iqtisodiy oʻsish dinamikasini solishtirish;
- Korrelyatsion tahlil — barqarorlik indekslari va YaIM oʻrtasidagi statistik bogʻliqlikni aniqlash;
- Ekspert baholash — davlat va nohukumat sohasi mutaxassislari bilan suhbat oʻtkazish;
- GIS-tahlil — shahar hududlarining fazoviy rivojlanish xususiyatlarini oʻrganish.

Tadqiqotda quyidagi xalqaro maʼlumotlar bazalaridan foydalanildi:

- BMT Aholi boʻlimi demografik maʼlumotlari (UN Population Division, 2020–2024);
- Jahon banki shahar rivojlanishi koʻrsatkichlari (World Bank Urban Development Indicators);
- Mercer shahar sifati indeksi (Mercer Quality of Living Index, 2023);
- EIU Global Liveability Index (2023);
- Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi maʼlumotlari (2019–2024);
- Toshkent shahar hokimligi rasmiy hisobotlari.

Tadqiqotda asosiy oʻzgaruvchi sifatida quyidagilar qabul qilindi: bogʻliq oʻzgaruvchi — shahar YaIMining yillik oʻsish surʼati (%).

Mustaqil oʻzgaruvchilar:

1. Yashil infratuzilma indeksi (Urban Green Space Index, UGSI);
2. Raqamli boshqaruv indeksi (Digital Governance Index, DGI);
3. Ijtimoiy inklyuzivlik koʻrsatkichi (Social Inclusion Score, SIS);
4. Transport samaradorligi indeksi (Transport Efficiency Index, TEI);
5. Energiya samaradorligi koʻrsatkichi (Energy Efficiency Score, EES).

## TAHLIL VA NATIJALAR

Singapur barqaror shahar rivojlanishining eng muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Shahar-davlat 2023-yilgi EIU Global Liveability indeksida 3-oʻrinni egallagan [15]. Singapurning “Yashil reja–2030” dasturi asosida 2030-yilga kelib shahar maydonining 80 foizida yashil hududlar yaratish moʻljallangan. Iqtisodiy koʻrsatkichlar jihatidan Singapur 2023-yilda 3,6 foizlik YaIM oʻsishiga erishdi. Shaharning barqarorlik va iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi munosabatini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, yashil infratuzilmaga qilingan har bir dollar investitsiya oʻrtacha 4,2 dollar iqtisodiy samara beradi [15].

Daniyaning poytaxti Kopengagen 2025-yilga kelib karbon-neytral shaharga aylanish maqsadini qoʻygan va ushbu maqsad sari izchil harakat qilmoqda. Shahar 2023-yilda YaIM boʻyicha aholi boshiga 12 400 dollar daromad toʻplagan va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 2,8 foizga oʻsgan. Kopengagenning asosiy kuchi — velosiped infratuzilmasidir. Shahar aholisining 62 foizi ish joyiga velosipedda boradi, bu esa transport xarajatlarini sezilarli kamaytirishi va iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashga hissa qoʻshishi bilan bir qatorda iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi [16].

Vena soʻnggi yillarda Mercer Quality of Living Index boʻyicha doimiy ravishda 1-oʻrinni egallab kelmoqda [17]. Shahar 2023-yilda 18,6 million sayyohni qabul qilib, turizm sanoatidan 6,4 milliard yevro daromad oldi. Vena modeli barqarorlik va hayot sifatini iqtisodiy raqobatbardoshlik bilan muvozanatli birlashtirishning namunasidir.

Toshkent — Oʻrta Osiyoning eng yirik shahri boʻlib, 2023-yildagi rasmiy maʼlumotlarga koʻra, aholisi 2,95 millionni tashkil etgan (chegara hududlari bilan birga 3,5 million) [18]. Shahar soʻnggi yillarda muhim oʻzgarishlarni boshdan kechirmoqda. 2021-yilda Toshkentni rivojlantirishning “Yangi Toshkent” konsepsiyasi qabul qilingan boʻlib, uni iqtisodiy, texnologik va madaniy jihatdan mintaqaning asosiy markaziga aylantirish koʻzda tutilgan.

Toshkent shahrida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik holatni yaxshilash va yashil hududlarni kengaytirish boʻyicha keng koʻlamli imkoniyatlar mavjud: transport tizimini rivojlantirish yillik YaIM samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda; havo sifatini yaxshilash boʻyicha ekologik dasturlar izchil amalga

oshirilmoqda; yashil hududlar ulushini xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirish bo'yicha yangi loyihalar bosqichma-bosqich kengaytirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Tanlangan shaharlarning barqarorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosi[1] (2023)

| Ko'rsatkich | Singapur | Kopengagen | Vena | Toshkent |
|---|---|---|---|---|
| Yashil hudud ulushi (%) | 47 | 35 | 45 | 12 |
| Raqamli boshqaruv indeksi (0–100) | 88 | 82 | 79 | 43 |
| Jamoat transporti qoplanishi (%) | 74 | 68 | 71 | 38 |
| YaIM o'sishi (%, 2023) | 3.6 | 2.8 | 2.1 | 5.4 |
| $CO_2$ emissiyasi (t/kishi) | 4.2 | 3.1 | 3.8 | 8.6 |

Korrelyatsion tahlil natijalari barqarorlik omillarining iqtisodiy o'sish bilan statistik jihatdan muhim bog'liqligini tasdiqladi.

Yashil infratuzilma va iqtisodiy o'sish. Tahlil qilingan 24 shaharda yashil hududlar ulushi va YaIM o'sishi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti r = 0,67 (p < 0,01) ni tashkil etdi. Bu ijobiy, o'rtacha kuchli bog'liqlikni anglatadi. Yashil infratuzilma turizmni jalb etish, ko'chmas mulk qiymatini oshirish va sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka hissa qo'shadi [16].

Raqamli boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik. Raqamli boshqaruv indeksi va shahar iqtisodiy raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik r = 0,74 (p < 0,001) ni tashkil etdi. Xususan, elektron xizmatlar joriy etilishi byurokratik xarajatlarni o'rtacha 23 foizga kamaytirishi aniqlandi [10].

Transport samaradorligi va mehnat unumdorligi. Transport tiqilinchining iqtisodiy narxi tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, samarali transport tizimi shahar mehnat unumdorligini 8–15 foizga oshirish potensialiga ega (2-jadval) [12].

2-jadval. Barqarorlik omillarining YaIM o'sishiga ta'siri[2] (regression tahlili natijalari)

| Omil | Regression koeffitsienti (β) | Standart xato | t-statistika | Ahamiyatlilik (p) |
|---|---|---|---|---|
| Yashil infratuzilma indeksi | 0.312 | 0.084 | 3.71 | < 0.01 |
| Raqamli boshqaruv indeksi | 0.428 | 0.076 | 5.63 | < 0.001 |
| Ijtimoiy inklyuzivlik | 0.218 | 0.091 | 2.40 | < 0.05 |
| Transport samaradorligi | 0.367 | 0.088 | 4.17 | < 0.001 |
| Energiya samaradorligi | 0.193 | 0.097 | 1.99 | < 0.05 |

*$R^2 = 0,724$; $F(5, 18) = 9,42$; $p < 0,001$*

Regression tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, barqarorlik omillari shahar YaIM o'sishining 72,4 %ini izohlaydi. Eng kuchli ta'sir raqamli boshqaruv (β = 0,428) va transport samaradorligi (β = 0,367) omillaridan kelib chiqadi (1-rasm).




1-rasm. Regression Koeffitsiyentlari[3] (β)

1 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida [18]
2 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida [18]
3 Muallif ishlanmasi.

Oʻzbekistonda urbanizatsiya sur’ati jadallashmoqda: 2000-yilda shahar aholisi nisbati 36,6 foiz boʻlgan boʻlsa, 2023-yilga kelib u 52,3 foizga yetdi [18]. Ushbu oʻsish yangi infratuzilma talablarini shakllantirmoqda.

Oʻzbekistonda barqaror shahar rivojlanishining asosiy toʻsiqlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- Moliyaviy cheklovlar: shahar infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar YaIMning 1,2 foizini tashkil etib, xalqaro tavsiya etilgan 3–4 foiz koʻrsatkichidan past;
- Texnik salohiyat yetishmasligi: mahalliy hokimiyatlar barqaror shahar rejalashtirish boʻyicha maxsus mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda;
- Institutsional muvofiqlashtirish muammolari: turli vazirlik va idoralar oʻrtasida shahar rivojlanishiga doir qarorlarni muvofiqlashtirish mexanizmlari takomillashmagan;
- Ma’lumotlar yetishmasligi: shahar rivojlanishi monitoringi uchun zarur real vaqt rejimidagi ma’lumotlar tizimi yoʻq.

Ayni paytda Oʻzbekistonda barqaror shahar rivojlanishi uchun jiddiy imkoniyatlar ham mavjud. Xususan, “Raqamli Toshkent” dasturi doirasida elektron boshqaruv xizmatlarini kengaytirish, “Yangi Oʻzbekiston” parklari tarmogʻini rivojlantirish, temir yoʻl va metro tizimlarini kengaytirish hamda quyosh energiyasini shahar energetikasiga integratsiya qilish bunga misol boʻla oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot barqaror shahar rivojlanishining asosiy omillari va ularning iqtisodiy oʻsishga ta’sirini xalqaro qiyosiy tahlil hamda Oʻzbekiston misolida koʻrib chiqdi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, barqarorlik va iqtisodiy oʻsish bir-biriga qarama-qarshi emas, balki oʻzaro mustahkamlovchi jarayonlar ekanligini empirik dalillar tasdiqlaydi. Raqamli boshqaruv, transport samaradorligi, yashil infratuzilma va ijtimoiy inklyuzivlik shahar iqtisodiy raqobatbardoshligining muhim omillari hisoblanadi.

Ikkinchidan, Oʻzbekiston shaharlari, xususan, Toshkent, barqaror rivojlanish koʻrsatkichlari boʻyicha Singapur, Kopengagen va Vena kabi yetakchi shaharlardan sezilarli orqada qolmoqda. Biroq, oʻtkazilgan islohotlar va amalga oshirilayotgan dasturlar ijobiy tendensiyalar mavjudligini koʻrsatmoqda.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari Oʻzbekiston uchun barqaror shahar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlari sifatida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, yashil shahar rejalashtirish va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishni belgilaydi.

Oʻzbekiston shaharlari uchun tavsiyalar

Qisqa muddatli (1–3 yil):

1. Toshkent shahrida yagona raqamli shaharsozlik platformasini yaratish va elektron hokimiyat xizmatlarini kengaytirish;
2. Shahar hududlarida yashil hududlar ulushini me’yoriy hujjatlar bilan 20 foizga koʻtarish majburiyatini qonunlashtirib, uni amalga oshirish uchun moliyalashtirishni ta’minlash;
3. Barqaror shahar rivojlanishi boʻyicha shahar boshqaruvi xodimlarini qayta tayyorlash dasturlarini boshlash.

Oʻrta muddatli (3–7 yil):

4. Barcha yirik shaharlarda “Aqlli shahar” boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish, sensorlar va IoT texnologiyalari asosida real vaqt rejimidagi monitoring tizimini yaratish;
5. Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida elektr jamoat transporti tizimini kengaytirish va velosiped infratuzilmasini rivojlantirish;
6. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali koʻk-yashil infratuzilma loyihalarini moliyalash tizimini yaratish.

Uzoq muddatli (7–15 yil):

7. 2035-yilga kelib Oʻzbekistonning barcha viloyat markazlarini xalqaro standartlarga javob beradigan barqarorlik koʻrsatkichlariga ega shaharlarga aylantirish maqsadini rasman belgilash;
8. Mintaqaviy hamkorlik doirasida Oʻrta Osiyo shaharlari barqaror rivojlanish platformasini yaratish va tajriba almashish tizimini yoʻlga qoʻyish.

Ushbu tadqiqot barqaror shahar rivojlanishining iqtisodiy oʻsishga ta’sirini keng qamrovli qiyosiy tahlil orqali koʻrsatdi. Kelajakda individual korxonalar va uy xoʻjaliklari darajasidagi mikroma’lumotlar asosida chuqurroq empirik tadqiqotlar oʻtkazish maqsadga muvofiq boʻladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division. (2022). World Urbanization Prospects: The 2022 Revision. United Nations. https://population.un.org/wup/
2. United Nations. (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. UN General Assembly Resolution A/RES/70/1. https://sdgs.un.org/2030agenda

3. World Commission on Environment and Development. (1987). Our Common Future (Brundtland Report). Oxford University Press.
4. Elkington, J. (1997). Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone Publishing.
5. Costanza, R., de Groot, R., Sutton, P., van der Ploeg, S., Anderson, S. J., Kubiszewski, I., ... & Turner, R. K. (2014). Changes in the global value of ecosystem services. Global Environmental Change, 26, 152–158. https://doi.org/10.1016/j.gloenvcha.2014.04.002
6. Chourabi, H., Nam, T., Walker, S., Gil-Garcia, J. R., Mellouli, S., Nahon, K., ... & Scholl, H. J. (2012). Understanding smart cities: An integrative framework. In 2012 45th Hawaii International Conference on System Sciences (pp. 2289–2297). IEEE.
7. Glaeser, E. L., & Gottlieb, J. D. (2009). The wealth of cities: Agglomeration economies and spatial equilibrium in the United States. Journal of Economic Literature, 47(4), 983–1028. https://doi.org/10.1257/jel.47.4.983
8. Holden, E., Linnerud, K., & Banister, D. (2014). Sustainable development: Our common future revisited. Global Environmental Change, 26, 130–139. https://doi.org/10.1016/j.gloenvcha.2014.04.006
9. Nam, T., & Pardo, T. A. (2011). Conceptualizing smart city with dimensions of technology, people, and institutions. In Proceedings of the 12th Annual International Digital Government Research Conference (pp. 282–291). ACM.
10. Sen, A., & Murshed, S. M. (2018). Urban inequality and economic growth: Cross-country evidence. World Development, 102, 255–267. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2017.07.005
11. Banister, D. (2008). The sustainable mobility paradigm. Transport Policy, 15(2), 73–80. https://doi.org/10.1016/j.tranpol.2007.10.005
12. Spoor, M. (2015). The challenge of sustainable development: Ideas and realities in Central Asia. Central Asian Survey, 34(2), 136–151. https://doi.org/10.1080/02634937.2015.1015728
13. Djanibekov, N., Hornidge, A.-K., & Ul-Hassan, M. (2012). From water users associations to water consumer associations: Emerging water governance institutions in Uzbekistan. Land Use Policy, 29(2), 300–309. https://doi.org/10.1016/j.landusepol.2011.06.016
14. Singapore Ministry of Sustainability and the Environment. (2023). Singapore Green Plan 2030: Annual Progress Report. https://www.greenplan.gov.sg
15. City of Copenhagen. (2023). Copenhagen City of Cyclists: Bicycle Account 2022. Technical and Environmental Administration. https://www.cycling-embassy.dk
16. Mercer. (2023). Quality of Living City Ranking 2023. https://www.mercer.com/insights/total-rewards/talent-mobility-insights/quality-of-living
17. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). O'zbekiston raqamlarda 2024. Statistika agentligi rasmiy nashriyoti. https://stat.uz

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz